2022-yil. 7-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ ПРЕПОДАВАНИЕ

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584

2022-yil
7-son

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'lqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev
(bosh muharrir o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

Elektron jurnali

M U N D A R I J A

TAHLIL

Rashid ZOHIDOV. XIX asr yozma yodgorliklari – kasb-hunar risolalarining muxtasar tavsifi 2
M. ISMATOVA. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni nashrlari qiyosiy tahlili 4
Obidjon XUDOYQULOV. Oybekning "Navoiy" va Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanlari tahlili 6
Zilola SHUKUROVA. Bayoz tuzish an'anasi va uning adabiy jarayondagi ahamiyati 10
Xasan GAFFOROV. O'zbek tilshunosligida gender tadqiqotlar tahlili 12
Feruza ABDULLAYEVA. Yil fasllari mavzusidagi ilmiy-ommabop badiiy maqolalarni o'qitish mashg'ulotlarining umumiy qurilishi 13
Shahnoza MAJIDOVA. Gidronimlarda nomlash tamoyillari va ularda oppozitsiya 15
Axrorov IXTIYOR. Jadid ma'rifatparvarlarining maorif va tarbiyaga oid qarashlari 17
Xamza XAITOV. Badiiy asar va folklor namunalarida saj'ning qo'llanishi va estetik ahamiyati. 18
Zarifa NORQOBILOVA. Mavlono Jaloliddin Rumiyning "masnaviyi-ma'naviy" asarida keltirilgan hikoyalardan multfilm yaratish g'oyasining pedagogik ahamiyati 19
Nigora SHARIPOVA. "Xamsa" ilk dostonlarida muallif siymosi 21
To'lqin ASADOV, Sojida MEHMONOVA. "Otamdan qolgan dalalar" asaridagi -la, -lan, -lash affiksli muallif nutqi neologizmlarining struktur-semantik tadqiqi 23
Rahmatov MARDON. She'riy jumla predikati va predikativlik muammosi 25
Bunyod ERGASHOV. Nemis tilini o'qitishda talabaning kommunikativ madaniyatini shakllantirish rivojlantirishda pedagogik ahamiyati 29
Omonulla BAYJIGITOV. Lingvokulturologik frazeologizmlarning assotsiativ talqini 30
Mehriniso CHORIYEVA. Abdurahmon Tamkin Buxoriy tarjimai holi va ijodi xususida 31

TADQIQOT

Maqsud ASADOV. Yunus Emro she'riyatida ma'rifat va komil inson talqini 33
Abduhamid XOLMURODOV. Tahlilda benazir olim 35
Kamola ULUG'MURODOVA. O'zbek g'azalchiligida "Layli" obrazining badiiy talqini 37
Azamat ATAYEV. O'rta asrlar Xorazm adabiy muhiti xususida 39
Diana RUZMETOVA. Ingliz tilini o'qitishda grammatik interferensiyaning oldini olish tadqiqoti 41
R. X. JUMAYEV. Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili 43
Nazira BERDIYEVA. Zamonaviy o'zbek nasri taraqqiyotida badiiy psixologizmning o'rni 45
Lola IDIYEVA. Russian polysemy and their description in sentences 47
Rasul ALIMOV. Usmonli turk shoiri Larendeli Hamdiyning "Layli va Majnun" dostonidagi qasidalar badiiyati 49
To'lqin ALLAYOROV. Interrogativ qurilmalarda shakliy va mazmuniy muvofiqlik masalasi 50

KICHIK TADQIQOT

Karomat MULLAXO'JAYEVA, Nafisa RAXMANOVA. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida Nizomiy an'analari va ularning yangicha talqini 52
Gulira'no RASULOVA. "Sab'ai Sayyor" dostonini o'rganishda matn tarixining o'rni 54
Abduraufxon ORIFJONOV. Munisning hayoti va ijodiga oid manbalar tahlili 55
Yulduz JUMABOYEVA. "Lison ut-tayr" turkumidagi dostonlarni qiyosiy o'rganish 56

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Азима ХОШИМОВА, Гульчехра ДАВЛЯТОВА. Специфика эмотивных концептов 58
Мафтуна НАСРИДДИНОВА. Несколько слов об иноязычных заимствованиях в русском языке. 59
Хилола ИРМАТОВА, Гульмира МАМАЖАНОВА. Теоретические основы вариантности орфоэпической нормы русского языка 60

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Насиба ПАНЖИЕВА, Мадинабону ДЖУРАБЕКОВА. Лингвистические основы обучения иностранному языку 62

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Шахноза БЕРДИЕВА. Образ автора в литературе нон-фикшн 64

ЗАРУБЕЖНАЯ ЛИТЕРАТУРА

Ижобат ЖУРАЕВА. Подросток и школа: характер конфликта в романе Ави «Ничего кроме правды» 66

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Нилуфар УСМАНОВА, Гулчехра ДАВЛЯТОВА. Современный речевой дискурс и неориторика языковой личности 70

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Rashid ZOHIDOV
ToshDO'TAU, Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori

XIX ASR YOZMA YODGORLIKLARI – KASB-HUNAR RISOLALARINING MUXTASAR TAVSIFI

Mamlakatimiz hududidagi barcha muzeylar, kutubxonalar va arxiv fondlarida saqlanayotgan qadimiy yozma manbalarning davlat reestrini tuzish va doimiy monitoringini yuritish, qadimiy yozma manbalarning turlari bo'yicha (qo'lyozma, toshbosma manbalar, tarixiy hujjatlar) kataloglari va elektron nusxalarini yaratish, ularni qadimiy yozma manbalar yagona axborot tizimiga kiritish hamda muntazam to'ldirib borish choralarini ko'rish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022- yil 10- fevraldagi PQ-126-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda belgilangan ko'rsatmalarni samarali hal etish yuzasidan etakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi zimmasiga bir qancha vazifalar yuklatilgan bo'lib, ulardan biri aholida saqlanayotgan qadimiy noyob qo'lyozmalar, chet el fondlaridagi mavjud asarlar nusxalarini ayirboshlash yoki olish hisobidan mamlakatimizning etakchi qo'lyozma va yozma manbalar fondini boyitib borishdan iboratdir. Hukumat miqyosida ilgari surilgan bu maqsad qadimiy qo'lyozmalarimiz xazinalarini boyitish, xorijiy davlatlarning kitob fondlarida saqlanayotgan, balki fanga noma'lum bo'lgan madaniy merosimiz namunalaridan iborat kataloglar tuzish, bunday noyob manbalarni har tomonlama chuqur o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilingan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi mo'ljallangan "Evropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarning ma'lumotlar bazasini va *"Yevroturcologika.uz"* elektron platformasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha ayni maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ilmiy loyiha tadqiqot ob'ekti jihatidan keng qamrovli, bibliografik resursi jahon fondlaridagi qo'lyozmalar tavsifi haqida birlamchi manbashunoslik ma'lumotlarini taqdim qilishdan iborat harakatdagi jarayondir. Negaki, Evropa fondlarida saqlanayotgan, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalarning ma'lumotlar bazasini yaratish mazkur manbalar haqidagi birlamchi ma'lumotlarni shunchaki qayd qilib qo'yish bilan nihoyasiga etmaydi. Balki, ayni ro'yxatga olish nuqtasidan reesterga kiritilgan har bir qo'lyozmaning kompleks tarzdagi fundamental tadqiqi boshlanadi va bu jarayon turli sathdagi ilmiy yondashuv, tahlillar orqali uzluksiz davom etadi.

Shu o'rinda loyiha ishtirokchisi sifatida jarayonda amalga oshirilayotgan tajriba va dastlabki natijalar bilan bog'liq ayrim ma'lumotlarni keltirish maqsadga muvofiq. Avvalgi bosqichda A.A.Romaskevich katalogi (27ta), K.G.Zaleman katalogi (90ta), A.Tagirjanov katalogi (22ta) BERUNI.UZ elektron katalog bazasiga kiritilgan qo'lyozmalarga solishtirilib, jami 139 ta O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalar aniqlandi. Shuningdek, L.V Dimitreva, S.N. Muratovlarning "Описание тюркских рукописей иститута востоковедения" katalogidagi manbalar ham BERUNI.UZ elektron katalog bazasiga kiritilgan qo'lyozmalarga qiyosan o'rganilib, O'zbekistonda mavjud bo'lmagan 213 ta turkiy qo'lyozmani aniqlashga erishildi.

O'zbekistonda mavjud bo'lmagan turkiy qo'lyozmalar ichida kasb-hunarga oid risolalarning ko'p uchrashi e'tiborimizni tortdi. Ayni yo'nalishdagi qo'lyozmalarning mamlakatimiz hududidan olib chiqib ketilishining siyosiy omillari haqida to'xtalish alohida mavzu. Lekin umumiy ma'noda qaralsa, bu jihat bir tomondan, XIX asr Evropa intellektining Sharq ijtimoiy-iqtisodiy hayotini maishiy jabhada har tomonlama o'rganishga qiziqishi kuchliligini bildirsa, boshqa tomondan, Evropaning bugungi iqtisodiy taraqqiyotida Sharq ijtimoiy-iqtisodiy madaniyatining ta'siri nechog'li ekanini anglatadi.

Quyida Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari instituti fondidagi O'zbekistonda mavjud bo'lmagan ellikdan ortiq kasb-hunar risolalarining ayrimlari bo'yicha muxtasar tavsifni keltiramiz.

عربه سازلیق [`arabasazliq]

Aravasozlik sohasiga bag'ishlangan **A 374** inventar raqami ostida saqlanuvchi ushbu qo'lyozma (Dimitreva,2210) 16 bet (1b-17a) dan iborat bo'lib, muqova o'lchami: 17x10,5; matn o'lchovi: 13,5x7,5. Boshlanishi (1b): الحمد لله رب العالمين و العاقبة للمتقين... وأصحابه اجمعين اما راويان اخبار

XIX asr oxiri. Qora siyohda nasta'liq xatida ko'chirilgan. Evropa qog'ozi. Muqova keyinroq (1956 y.) kartondan qilingan, labagisi sun'iy charmdan. Muqovalash jarayonida qo'lyozma ta'mirlangan. (S.M.Smirnov kollektsiyasidan 1880 y.)

اسپ فوروشلیق [aspfurushliq]

Ot savdosi qonun-qoidalariga bag'ishlangan **A**



403 inventar raqami ostida saqlanuvchi bu qo'lyozma (Dimitreva,2210) 47 bet. 11a-17b betlarda mavzuga oid duolar keltirilgan. Muqova o'lchami: 12x8; matn o'lchami: 8x5,5. Boshlanishi (2a): اما جعفر صادق...انداغ روايت قيلب دورلار كم...

Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Ko'chirilgan joyi – Koshg'ar.1309/1891-92 y. Kotibi – ظغاو مړكلا دبع (47a). Xitoy qog'ozi, muqovasi kartondan, labagisi teridan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

عطارليق[attorliq]

Atr tayyorlash bo'yicha risola. Inventar raqami – **A 416**. Hajmi – 27 bet. O'lchami – 19x11,5; 13x7 (Dimitreva,2212). Asar nomi 16b betda ko'rsatilgan. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1b):ياغلاق روكذم ان و يفخم هلل دمحلا ...مړيك . Xitoy qog'ozi. Muqovasi kartondan, labagisi charmdan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

آشپزليك [oshpazlik]

Oshpazlik risolasi. Inventar raqami – **A 401**. Hajmi – 11 bet. (Dimitreva,2214). O'lchami: 13x9,5; 7x5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1b): الحمد لله... جبرائل عليه السلام غا فرمان بولدى... . Xitoy qog'ozi. Muqovasi kartondan, labagisi charmdan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

آهنكران [ohangaron]

Temirchilik risolasi. Inventar raqami – **A 369**. Hajmi – 32 bet. (Dimitreva,2216). O'lchami: 12x8,5; 8x6,5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1b): الحمد لله...بيعدد حمد خدا و نعت... Xitoy qog'ozi. Muqovasi xitoyi charmdan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

ق يل لاقب [baqqolliq]

Baqqollik risolasi. A 389 inventar raqamidagi bu risola o'rama qo'lyozma (svitok) sifatida saqlanadi. (Dimitreva,2217). O'lchami: 116x25; 103x18. XIX asr oxiri. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan.O'rta Osiyo qog'ozi. Boshlanishi (1b):الحمد لله ... انداغ روايت قيليب دور لار كيم...امام جعفر صادق... (S.M.Smirnov kolleksiyasidan 1880 y.)

بافنده ليق [bofandaliq]

Tikuvchilik risolasi. Inventar raqami – **A 551**. Hajmi – 15 bet. (Dimitreva,2218). O'lchami: 11x8; 7x5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1a): الحمد لله...آدم عليه السلام خداى تعالى غه ... Xitoy qog'ozi. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

دهقان ليق [dehqonliq]

Dehqonlik risolasi. Inventar raqami – **A 376**. Hajmi – 32 bet. (Dimitreva,2223). O'lchami: 11,5x8,5; 6,5x5,5. 1285/1868-69. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan. Boshlanishi (1a): الحمد لله...آدم عليه السلام نى كناه... Xitoyi qog'oz. Labagisi teridan bo'lgan kartonli muqova keyin qilingan. (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)**دهقانچيليق** [dehqonchiliq]

Dehqonchilik risolasi. Inventar raqam – **A 2126.** Hajmi – 85b-b. (Dimitreva,2227). O'lchami: 21x13,5; 16,5x9. 1285/1868-69 y. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan. Muqova bo'rtma naqshli, labagisi charmdan. Boshlanishi (85b): الحمد لله رب العالمين... (Ivanov kolleksiyasidan 1915 y.)

جوازچى ليق [javozchiliq]

Inventar raqami – **V 2126.** Hajmi – 81b-85a. (Dimitreva,2229). O'lchami: 21,5x13,5; 16,5x9. Taxminan, 1863 yillarga oid. Boshqa ma'lumotlar 2227-raqamli tavsifda. 1285/1868-69 y. Boshlanishi (81b): الحمد لله رب العلامين...

ق ىلى چ ەناويد [divanachiliq]

Gadoylik odob-axloqi haqidagi ushbu risolaning inventar raqami **A 413.** Hajmi – 32 bet. (Dimitreva,2232). O'lchami: 10x9; 4,5x5. 1318/1900-01 y. Nasta'liq xatida qora va jigar rang siyohda ko'chirilgan. Kotib – Mulla Choshim Aljoniy. Qog'ozi xitoyi. Muqova kartondan, labagisi charmdan. Boshlanishi (1b): الحمد لله رب العالمين...بو رساله سائل ليق... (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

قازانچى ليق [qazonchiliq]

Inventar raqami – **A 419**. Hajmi – 16 bet. (Dimitreva,2233). O'lchami: 9x7; 6x5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora va qizil siyohda ko'chirilgan. Qog'ozi xitoyi. Muqova kartondan, labagisi charmdan. Boshlanishi (1b): الحمد لله...انداغ روايت قيلب دورلار كيم قزانچى ليق احكامنى... (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)

ق ىلى چ باصق [qassobchiliq]

Qassobchilik qonun-qoidasi haqidagi risola. Inventar raqami **A.379.** Hajmi – 13 bet. (Dimitreva,2234). O'lchami: 12x9; 7x6,5. XIX asr. Nasta'liq xatida qora siyohda ko'chirilgan. Qog'ozi xitoyi. Muqova kartondan, labagisi charmdan. Boshlanishi (1b): الحمد لله... بو رساله نى حضرت جوان مرد بتب دورلار... (Oldenburg kolleksiyasidan 1910 y.)